

TASHKILOT STANDARTI

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti

Soʻz boshi

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boʻyicha bosh mutaxassis tomonidan ISHLAB CHIQLILGAN va KIRITILGAN.
2. Oʻzbekiston Milliy antidoping agentligining 23.12.2025 sanasidagi **58-son** buyrugʻi bilan **TASDIQLANGAN**.
3. ILK BOR KIRITILISHI.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti

TASHKILOT STANDARTI

1 Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur uslubiyot O'zbekiston Milliy antidoping agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) da yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarni belgilab beradi hamda Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

1.2 Quyidagilar Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Agentlik faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralari ishlab chiqish.

1.3 Agentlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagi hujjatlarning ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish choralari (tadbirlar)ni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

1.4 Agentlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi Agentlikning ichki hujjatlari o'zgarishi;

Agentlik tuzilmasining, funktsiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarning o'zgarishi, yangi funktsiyalarning yuklanishi;

Agentlik funktsiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

1.5 Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul qilingandan so'ng qoluvchi xavf-xatar (ya'ni, amaldagi korrupsiyaga

qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Agentlik nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Agentlik tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – Agentlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan, funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va (yoki) olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – Agentlik funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo'linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma'lum bir funktsiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan Agentlikning ichki jarayon (faoliyat yo'nalishlari)laridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'linmaning subyektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

o'ziga xos xavf-xatar – Agentlik faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spetsifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatari, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya'ni,

amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatalarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda).

1.6 Agentlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha bosh mutaxassis (keyinchalik — Komplayens inspektor) tomonidan Agentlik direktori topshirig'i asosida amalga oshiriladi. Agentlik direktori topshirig'ida baholashni o'tkazish aniq muddatlari ko'rsatiladi.

1.7 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda Komplayens inspektor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

Agentlik direktoriga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini taqdim etadi;

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

2.1 Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli buyruq va unda ko'rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

2.2 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida Agentlik xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

2.3 Agentlikning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplayens inspektor tomonidan ishlab chiqiladi va Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

2.4 Qoldik korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun Komplayens inspektor ushbu Uslubiyotining B-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

2.5 Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Komplayens inspektor taqdimnomasiga asosan Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

2.6 Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda

Komplayens inspektor tomonidan ishlab chiqiladi hamda Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

3 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

3.1 Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Agentlik direktorining tegishli buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

3.2 Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

3.3 Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin Komplayens inspektor Agentlikda oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida tahlil qiladi.

4 Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

4.1 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

tashkilotning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va tashkilotning ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo‘linmalar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari to‘g‘risidagi nizomlar va hokazo);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring natijalari;

odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmati oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o‘tkazilgan so‘rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha tashkilotning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Agentlik faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma’lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

Agentlik xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik to‘g‘risida OAVdagi ma’lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

4.2 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Agentlikning har bir

funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

4.3 Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya.

4.4 O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatar xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va tashkilotning Ichki nazorat tuzilmasining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

4.5 Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishning ehtimoli (mazkur Uslubiyotning D-ilovasi 5.1 jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarining oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotining D-ilovasi 5.2-jadvalidagi mezonlarga qarang)ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti D-ilovasidagi 5.1 rasm).

5 Korrupsiyaviy xavf-xatarining qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

5.1 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora Agentlik xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

5.2 Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi (mazkur Uslubiyotining A-ilovasi).

5.3 Agentlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat Komplayens inspektor tomonidan amalga oshiriladi.













6 Yakuniy qoidalar

6.1 Zarurat bo'lganda, Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Komplayens inspektor tomonidan Agentlik direktoriga takliflar kiritiladi.

O'zgartirishlar kiritilishi xronologiyasi

№	Kiritilgan qo'shimcha yoki o'zgartirish	Sana	Imzo

Tanishtiruv varaqasi

№	Xodimning familiyasi, ismi, sharifi	Sana	Imzo
1.	З.Х. Сагдулов	24.12.2025	
2.	А.Б. Солиев	24.12.2025	
3.	З.А. Акбарходжаева	24.12.2025	
4.	Б.Б. Турсунов	24.12.2025	
5.	Х.Р. Оминов	24.12.2025	
6.	Д.О. Чиркова	24.12.2025	
7.	Н.Ш. Ешқимов	24.12.2025	
8.	Т.З. Каримов	24.12.2025	
9.	Р.М. Разлиев	24.12.2025	
10.	М.Х. Хамидова	24.12.2025	
11.	Д.А. Давронова	24.12.2025	
12.	З.Э. Кодинова	24.12.2025	
13.	Л.А. Холмиев	24.12.2025	
14.	М.Ш. Турсунов	24.12.2025	
15.	А.Д. Абдурахманов	24.12.2025	
16.	Н.Х. Ахмедов	24.12.2025	
17.	У.Бурханов	24.12.2025	
18.	Т. Мирзамирова	24.12.2025	
19.			
20.			
21.			
22.			
23.			
24.			
25.			
26.			
27.			
28.			
29.			
30.			
31.			
32.			
33.			